

ISO MASIHI OBRAZINING LUTFIY, ATOYI VA GADOIY G'AZALIYOTIDAGI**BADIIY TALQINI**

Ahatova Durdona Davron qizi

BuxDU 2 – kurs magistranti

Badiiy adabiyotda payg'ambarlar obrazining qo'llanishi, mazkur payg'ambarlarga atalgan qissa voqeligiga ishora etib, asarni muzayyan etish ko'p davrlardan buyon davom etadi. Xususan, XV asr shoirlaridan bo'lmish Lutfiy bir qator go'zal g'azallarida “Qur'oni karim”da nomi zikr etilgan payg'ambarlardan bo'lmish Iso (a.s)ni ham nomini keltirish bilan birga u haqidagi qissalar mazmuniga ishora etadi. Chunonchi,

Iso falakka oshti chun bo'ldi labing jon berguchi,

Sharmandalikdin ketmasa ko'kta anga ne bor erur.^{1. 57b}

Ushbu baytda Iso labing jon berguvchi bo'lganligi uchun sharmandalikdan ko'kka uchdi mazmuni anglashiladi. Baytda shoir tajohuli orifona (arabcha biluvchining bilmagan bo'lib ko'rinishi; shoir o'zi tasvirlayotgan voqea – hodisa, uning xususiyatlarini yaxshi biladi, ammo bilib turib o'zini bilmaslikka oladi.) san'atidan foydalanish orqali yorining labini tasvirlamoqda: labing “jon berguchi” ya'ni tiriltiradi; ushbu lab esa, shu sifati bilan Iso (a.s.)ga muqoyasa etilyapti, Qur'oniy qissalarda o'lgan odamga jon ato etishi tarannum etilgan Iso (a.s) haqida quyidagicha rivoyat keltiriladi: “Andin so'ng Iso elga kirdi, xaloyiqni iymonga da'vat qildi. Yalavochliq oshkoro qildi. Aydilar: “Yalavoch ersang mo'jiza ko'rguzgil” Aydi: “Mo'jiza ul tururkim, o'likni tirguzarman, xastani yaxshi etarman, pesni to'g'a, ko'zsizni ko'rur qilurman”.^{5. 84b}

Shuningdek, Iso (a.s) vafot etganidan so'ng ko'kka (me'rojga) ko'tarilgan degan qarashlar ham mavjud. Shunga tayanib shoir Iso (a.s)ning ko'kka ketishini shoir ma'shuqasining labi jon bag'ishlovchiligi uchun sharmandalikdan deya isbot etmoqchi bo'ladi.

Shuningdek, shoir yana bir baytida Iso Masihga murojaat etib shunday deydi:

Masiho, bir nima borkim ko'runmas,

Dudog'ing qilg'ali, jon bermak og'oz.^{1. 104b}

Shuni ta'kidlash lozimki, Iso (a.s) Iso Masih deb ham aytiladi. Shuning uchun Masihga murojaat qilinganda Iso (a.s) nazarda tutiladi. Ushbu bayt tahliliga keladigan bo'lsak, avvalo, “og'oz” so'zi “boshlash, kirishish” degan ma'noni anglatadi. So'zma – so'z aytilganda “Masiho, Dudog'ingni qiladigan, ko'rinmas bir nimasi borkim, u jon bera boshlaydi” degan ma'no anglashiladi. Bu yerda shoir istiyoraviy talqin qo'llagan bo'lib, murojaat qilinayotgan obyekt oshiqning yori hisoblanadi. G'azal boshdan oyoq oshiqona ruhda yozilgan bo'lib, shoir matla'da mashuqasining qaddini ta'rif etsa, keyingi baytlarda esa g'amzasini (noz), yuzuni, ko'zini madh etadi. Yuqorida Iso (a.s)ning mo'jizasi o'lgan odamga jon kirgizishligi haqidagi hikoyat keltirildi va shunga ko'ra ushbu baytda lirik qahramon ma'shuqasining dudog'ini jon beradigan deya ta'riflaydi.

Lutfiyini tirgizadur har nafas ul la'li labing,

Ushbu dam ichra, Masiho, seni – o'q ko'rdum bas.

Mazkur bayt Lutfiyning “Seni – o'q ko'rdum bas” radifli g'azalidan olingan. Radifdagi “o'q” so'zining ma'nosi “Navoiy asarlarining izohli lug'at”ining III jildida (IV jildli) kuchaytiruv yuklamasi deb berilgan va shunga muvofiq radifdan “seni ko'rganim hamono”, “seni ko'rishim bilan” ma'nolari anglashiladi. Baytdagi Masihga murojaat esa Iso (a.s.)ning o'lgan tanaga jon ato etishi yuzasidan qo'llangan. Baytning to'liq mazmuni esa, “seni ko'rdimki, bas, Lutfiyini har nafas u la'li labing tiriltiradi”. G'azal ma'shuqa husniga bag'ashlangan bo'lib, hattoki, boshqa baytda, husn uchun lirik qahramon yetti iqlimni dar – badar, shahar – bashahar kezganligini aytadi va shu tahlil qilinayotgan baytda shoir mashuqa labining go'zalligini ta'riflash uchun ham talmeh (arabcha porloqlik, chaqmoq chaqilishi, bir nazar tashlash; she'rda mashhur tarixiy yoki afsonaviy shaxs, voqea, joy nomlarining keltirilishi yoki ularga ishora qilinishidir.), ham mubolag'a (arabcha bo'rttirish, kuchaytirish; badiiy adabiyotda predmet, belgi, harakat yoki holatlarni bo'rttirib kuchaytirib tasvirlash usulidir) she'riy san'atlaridan samarali tarzda foydalangan.

XV asr shoirlaridan yana biri Atoyiki, uning g'azallari ohangdorligi bilan ajralib turadi. G'azallarida payg'ambarlarga, xususan, Iso (a.s.)ga bag'ishlangan hikoyatlarga ishoratlar talaygina. Chunonchi:

Garchi Yusufdek bukun husnu malohat Misrida,

Mo'jizi Iso, valekin la'li xandonindadur.^{2.72b}

Ko'rinadiki, baytda ikki payg'ambar Yusuf (a.s.) va Iso (a.s.) qo'llangan. Birinchi misrada tashbeh (arabcha o'xshatish) san'atidan o'rinli foydalanilgan holda, Yusuf payg'ambar haqidagi hikoyatga ishorat etilmoqda. Husnda tengsiz Misr podshohi Yusuf (a.s.)ga shoir ma'shuqasini husn bobida mengzayapti. Shuningdek, ikkinchi baytda esa, Iso (a.s.) mo'jizasi ya'ni o'lgan tanaga jon bag'ishlash ma'shuqasining la'li xandonida ya'ni labida mujassam deya yorini ta'riflayapti.

Labing qonim to'karga tashnalabtur,

Dami Isoyu o'lturmak ajabtur.^{2.97b}

Shoir Atoyi ushbu matla'sida ma'shuqasining labini ta'rif etar ekan, Iso dami ya'ni Iso (a.s.)ning nafasiga yorinig labini tashbehlayapti. Ushbu ishora orqali shoir yorining labini jon bag'ishlovchi demoqchi, ammo shu o'rinda lab lirik qahramonning qanini to'kmoqchi. Bu bilan shoir mashuqasining oshig'iga qayrilib qaramasligidan shikoyatlanyapti va ushbu mavzu g'azalning boshqa baytlarida ham davom etadi.

Tarso, Masih mazhabin tark etar edi,

Gar ko'rsa erdi la'lini Iso zamonida.^{2.220b}

Mazkur baytda ustalik bilan ma'shuqaning labi hayotbaxshligi ishora yordamida ko'rsatilyapti. Chunonchi, tarso – xristian, mazhab – dinda tutilgan yo'l ma'nolarini anglatadi. Endi bayt tahliliga o'tsak, Iso Masih targ'ib etgan dinga ergashadigan tarso kishisi agarda

yorning labini ko'rsa, o'zi iymon keltirgan dindan qaytgan bo'lar edi, chunki, yuqorida keltirilgan hikoyaga ko'ra, Iso (a.s.)ning mo'jizasi o'lgan odamga ruh kirgazish, yorning labi esa, hayotbaxshlikda ushbu mo'jizadan ham yuqoriroqda turadi demoqchi.

Ey jamoling ravzasindin munfail xuldi barin,

Shakkar og'zing chashmasinda Xizru Iso hamnishin.^{3. 180b}

Ushbu bayt tahliliga kirishishdan oldin ba'zi so'zlar ma'nosiga oydinlik kiritib olsak, ravza – bog'; munfail – ta'sirlangan, hayajonlangan, uyalgan, xijil; xuld – abadiylik, doimiylik, Jannat; hamnishin – birga o'tiruvchi. Bir qator so'zlarimiz ma'nosi anglashilganidan so'ng ushbu matla' tahlili ancha oson kechadi: shunchalar go'zalsanki, eng oliy Jannat ham sening jamoling bog'idan uyaladi deyiladi birinchi misrada. Ikkinchi misrada esa ma'shuqaning shakkar og'zi chashmasi barhayotligiga ishora mavjud. Chunonchi, baytda qo'llanga Xizr obrazi haqidagi hikoyalarning birida: “Xizr ma'nisi yashil bo'lur. Qayu tosh uza Xizr alayhis – salom o'ltursa ul tosh yasharur erdi... Mangu suyini ichib tirik qoldi...” deyiladi. Iso (a.s.)ning esa o'likka jon baxsh etuvchi mo'jizasi bor. Shoir yuqoridagilarni nazarda tutib, “Shakkar og'zing chashmasinda Xizru Iso hamnishin” deydi.

Gadoiy ham ushbu davrda ijod etgan shoir hisoblanadi. Shuningdek, uning ijodida ham payg'ambarlar haqidagi hikoyalarga ishoratlar mavjud. Bulardan bir qanchasini misollar yordamida ko'rib chiqamiz:

Lutfi guftoring Masih e'jozini mansuh etar,

Bu ne alfozu ibrattur, zihi sun'i xudo.^{3. 16b}

Ko'rinadiki, bayt birmuncha murakkab. Bayt tahlilini so'zlar ma'nosini ko'rib chiqishdan boshlaymiz:

E'joz - mo'jiza ko'rsatish, (boshqalarni) hayron qoldirish;

Mansux – bekor, amaldan qolgan, bekor qilingan, e'tiborsiz;

Alfoz – so'zlar, iboralar, jumlar; talaffuz; til;

Zihi – go'zal, yoqimli; xuddi o'zi, juda, eng;

Sun'i – yasash, yaratish, ish, hunar, mahorat; xudo.

Shoir ushbu baytda ma'shuqasining so'zlarini, gapirishini madh etadi, chunonchi, yorining “lutfi guftori” ya'ni gapirishi Masih mo'jizasini bekor qiladi chunki yorining so'zlari jonbaxshlikda Iso Masihni ortda qoldiradi. Ikkinchi misrada esa ma'shuqasining so'zlari ibratligi va u xudo yaratgan eng go'zali ekanligi aytilgan.

Dilrabo, og'zing ya'ni naqshi xotam ko'rnadur,

Lablaringda mo'jizi Isoyi Maryam ko'rinur.^{3. 55b}

Ushbu baytda ham yor go'zalligi talmeh orqali tashbehlangan. Oshiqning ma'shuqasi ya'ni dilrabo yorining og'zi go'yoki “naqshi xotam” (“xotam” so'zi I. uzuk; II. Oqibat, xotima; III. Muhr, tamg'a ma'nolarini anglatadi) muhr naqshi ko'rinadi, chunonchi, Islomiy hikoyatlarda keltirilishicha, payg'ambarlarda payg'ambarlik bo'ladi va shunga asosan, Gadoiy g'azalida mahorat bilan ma'shuqaning lablari jonbaxshligini tasvirlayapti. G'azal islomiy ruhda

yoʻzilgan boʻlib, “Isoyi Maryam” (Maryamning oʻgʻli Iso)ning moʻjizasi maʼshuqa lablarida koʻrinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Lutfiy. Sensan sevarim. – Toshkent. Gʻafur Gʻulom nomidagi Adabiyot va sanʼat nashriyoti, 1987. – B 464.
2. Gadoiy. Devon. – Toshkent. Gʻafur Gʻulom nomidagi Adabiyot va sanʼat nashriyoti, 1973. – B 148.
3. Atoyi. Devoni Shayxzoda Atoyi. – Toshkent. Oʻzbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi “Fan” nashriyoti 2008. – B. 320.
4. Eshonqulov H.P. Alisher Navoiy gʻazaliyotida ishq poetikasining qiyosiy - tipologik tahlili. Buxoro. 2020. – B. 278.
5. Nosiruddin Rabgʻuziy. Qissasi Rabgʻuziy. II tomli.
6. Navoiy asarlari tilining izohli lugʻati. IV tomli.